Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 316
PEDAGOGIKA

INKLYUZIV-BAG'RIKENGLIK QADRIYATI OILADAN BOSHLANADI

Adolat Ravshanbek qizi Amangeldiyeva*
UrDU tayanch doktaranti
✉ adolatxonamangeldiyeva5@gmail.com

ANNOTATSIYA

Qadriyatlar inson uchun to'g'ri, go'zal, yaxshi hamda foydali bo'lgan miqdorlarni o'lchash mezoni vazifasini bajaribgina qolmay, kishi xulq-atvori haqida ma'lumot ham beradi. Jamiyatning barcha a'zolari qadriyatlarni avloddan avlodga uzatish mas'uliyatini bajarsada, asosiy yuk oila zimmasidadir.. Tadqiqot mavzusi oilada bag'rikenglik qadriyatini shakllantirish orqali yosh avlodni kelgusida inklyuziv madaniyatli jamiyatga tayyorlash, yosh avlodni ta'lim tizimidagi inklyuziv jarayonlarga onglik yondashuvini ta'minlashdan iborat.

Kalit so'zlar

oila, bag'rikenglik, qadriyat, mezon, tarbiya, madaniyat, sharqona qadriyatlar, qabul qilish, tenglik, adolat, rag'batlantirish, namuna.

DOI: 10.5281/zenodo.21835581

KIRISH|

Zamonaviy va tobora jadal ommalashib borayotgan, globallashuv jarayonida qadriyatlar oilani himoya qilishda yordam beradigan asosiy omillardan biridir. Oilaviy tarbiya qadriyatlarni singdirish shuningdek ijtimoiy moslashuvchanlikka ega va mustahkam shaxsiyatli barkamol avlodlarni tarbiyalash usullaridan biridir. Oiladagi bag'rikenglik qadriyatini saqlash, ushbu qadriyatlarga sodiq avlodlarni tarbiyalash va shu bilan birga jamiyatning ajralmas bo'g'ini bo'lgan oilani himoya qilishga xizmat qiladi, bu esa tadqiqotimiz maqsadini tashkil qiladi.

Mazkur ishimizda – psixologik va pedagogik nuqtai nazardan oilada fazilatli shaxslarni tarbiyalashga imkon beruvchi va oilani mustahkamlovchi qadriyatlarni egallash hamda ularni saqlab qolish jarayonini tahlil qilish; shuningdek, bu jarayonda bag'rikenglik qadriyatini o'rganish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalik davri qadriyatlar rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki erta bolalikda o'rganishning asosiy usuli taqlid bo'lgani uchun, qadriyatlar dastlab oila a'zolarini taqlid qilish orqali o'zlashtiriladi. Keyinchalik, oila a'zolarining xatti-harakatlarida bevosita mavjud bo'lgan qadriyatlar namuna ko'rsatish orqali o'zlashtirilishi mumkin. Qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida bolalar identifikatsiya — taqlid va namuna ko'rsatishning bir ko'rinishini ham tanlashlari mumkin. Ota-ona yoki boshqa oila a'zosining xulq-atvorini tanlab, uni o'z xulq-atvor naqshlariga kiritadigan bola ular bilan identifikatsiya qilgan bo'ladi. Oilada yosh avlodni ota-ona namunasi oila an'analari, shajarasi, kasb-kori, axloqiy-ma'naviy qadriyatlari asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, o'zaro mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantirish vositasida ulami oilaviy hayotga tayyorlash kutilgan natija beradi.[7]

O'zbek xalqining axloqiy odatlarining mustahkamligi, asosan oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga alohida ahamiyat berilishi bilan bog'liq. [5]

Tolerantlik – keng miqyosli tushuncha. U jamiyat hayotiga ta’sir qiluvchi inson sog‘ligidan tortib, axloq va qonuniylikkacha bo‘lgan jihatlarni qamrab oladi. Tolerantlik atamasini 1953 yilda ilmiy muomalaga kiritgan P.Madevarning fikricha, tolerantlik immunitetiga ega bo‘lgan sog‘lom organizmning yot jismlarga qarshi immun ta’sirining susayishi yoki yo‘qolishidir. Tolerantlilik (lot. - chidamoq) – a) O‘zgalar turmush tarziga, hatti-harakatiga, urf-odatlariga, his-tuyg‘ulariga nisbatan chidamlilik. b) Noqulay emotsional omillarga nisbatan chidamlilik[8]

Bag‘rikenglik — bu bizning dunyodagi madaniyatlarning boy xilma-xilligini, o‘zini namoyon qilish shakllarini va inson individualligini namoyon qilish usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishdir. Bag‘rikenglik boshqalarni tushunish va muloqot qilish, uning boshqacha bo‘lish huquqini tan olish va hurmat qilishni anglatadi.[3]

Inklyuziv ta’lim bolalarga sifatli ta’lim berish faqat maktab jamoasi va mutaxasislarning vazifasi emasligini, balki oila mas’uliyati ham katta rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Jamiyat, xususan oilalar, bolalar va madaniy tuzilmalar haqidagi bilimlariga tayanib, maktabdagi inklyuziv muhitni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Oiladan olinadigan tarbiyaviy kuch mutaxasislarda yo‘q, chunki ilk tarbiya o‘chog‘i bu oiladir.

MUHOKAMA

Oilalar, yoki bolalarga birlamchi g‘amxo‘rlik qiladigan oila a’zolari, shaxs atrofidagi eng yaqin tizimning bir qismini tashkil etadi. Oilalarning bolalari bilan munosabatlari tabiati esa o‘quvchilarning rivojlanish jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi. Oila ichidagi munosabatlar va qadriyatlar, o‘quvchilarga ko‘rsatiladigan hissiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi hamda oilada mavjud bo‘lgan resurslarning barchasi o‘quvchining ta’lim hayotiga ta’sir qiladi.

Ota-onalarning farzandlarining ta’lim jarayonida ishtiroki va ularga ko‘rsatadigan qo‘llab-quvvatlashi farzandlarining individual va rivojlanish xususiyatlarini puxta tushunishiga bog‘liq. Ota-onalarning ta’lim tizimiga farzandlarini kiritish hamda ularning sifatli ta’lim olish imkoniyatiga oid munosabatlari, qarashlari va fikrlari katta ahamiyatga ega.

Ota-onalar farzandlarini tanish uchun birinchi navbatda ularning rivojlanishini kuzatib borishlari va ular haqidagi zarur ma’lumotlarni ta’lim mutaxassislari bilan bo‘lishishlari kerak.

Bag‘rikenglik shaxsiy qadriyat bo‘lgani kabi, ijtimoiy qadriyat hamdir. Bu boshqalarning qarashlari va fikrlarini chin dildan qabul qilishni, ularning erkin ifoda etilishiga imkon berishni va ularga munosib munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Tolerantlik turli e’tiqod va qadriyatlarga ega shaxslarga bir-birlarining farqlarini hurmat qilgan holda yonma-yon yashash imkonini beruvchi qadriyatdir. Tolerantlik mavjud bo‘lgan joyda oddiy sabr-toqat huk suradi. Tolerantlik — bu o‘zini ham, boshqalarni ham anglaydigan insoniy xususiyatidir.

Tolerant bo‘lish uchun shaxs o‘z erkinligi va harakatlarining boshqalarga qanday ta’sir qilishini anglab yetishi va o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi kerak. Boshqa tomondan, bag‘rikenglik turlicha narsalarni tushunishga intilish, ularga hamdardlik qilish, odob-axloq, kamtarlik va rahm-shafqat kabi qadriyatlar bilan bog‘liq. Agar shaxs va boshqalar birga yashasa — ya’ni, ular bir xil makon va vaqtda yashasa va mavjud resurslarni bo‘lishsa — ularning tinch va bag‘rikenglik bilan yashashi qiyin; shuning uchun oiladagi bag‘rikenglik tarbiyasiga his qilishni kiritish zarurdir. Chunki shaxsning boshqalarni tushunish bilan qarshi olishi yo‘li ularning his-tuyg‘ularini anglashga harakat qilish va o‘zingni boshqalarning o‘rniga qo‘yishdan iborat bo‘lib, bu bag‘rikeng munosabatning hissiy va kognitiv o‘lchamlariga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, odamlar o‘rtasidagi birlik va hamjihatlik tuyg‘usi, tenglik, yaxshi xarakter va ijobiy qarash kabi yondashuvlar bag‘rikenglikni rag‘batlantiradi. Tolerantlik irsiy xususiyat emas; bu orttirilishi, o‘rganilishi va rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan munosabatdir. Jamiyatda shaxs atrofdagilar bilan muloqot orqali bag‘rikenglikni o‘rganadi. Shaxsning bag‘rikeng bo‘lishi yoki bo‘lmasligi uning yashayotgan muhitiga bog‘liq.

Bag‘rikenglik ta’limi uchun eng qulay muhit – bu oilaviy muhitdir, keyingi bosqich umumiy o‘rta ta’lim hamda undanda kuchliroq ta’sir jamiyatni ham unutmaslik kerak. Biroq, boshqa qadriyatlarda bo‘lgani kabi, bu boradagi mas’uliyat asosan oila va maktab zimmasiga tushadi. Oilada bag‘rikenglikni xulq-atvor shakli sifatida o‘rgatish uchun bag‘rikenglikni o‘rgatadigan oila a’zolari avvalo o‘zlari bag‘rikeng bo‘lishga

o‘rgatilgan va bag‘rikeng xulq-atvorni o‘rgata oladigan bo‘lishlari darkor. Bundan tashqari, oila doirasida bolalarga bag‘rikenglik bo‘yicha ta’lim berishda maqsad xilma-xil madaniyatli jamiyatlarda birga yashash tuyg‘usini uyg‘otish ham bo‘lishi mumkin. Agar bolalar farqlarni qabul qilib, boshqalarga nisbatan kamsitish yoki chetlashtirish o‘rniga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishni tanlasalar, bu oiladan kengroq jamoagacha tarqaladigan tinchlik muhitini shakllantirishga yordam beradi.

Oiladagi turli fikr va xulq-atvorni qabul qilish bilan qarshi olish, turli fikrlash usullarini ruxsat berish va qadrlash, ularga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish – bu oila a’zolarni bir-biriga yaqinlashtiradigan xatti-harakatlardir. Bag‘rikenglik odatda ma’qul deb hisoblanmaydigan yoki yoqmaydigan vaziyatlarga duch kelganda namoyon bo‘ladi. Oilada ma’qul emas deb hisoblangan fikr yoki xulq-atvor bilan yuzma-yuz kelganda namoyon bo‘ladigan bag‘rikenglik – bu bir tomonlama bo‘lmasligi kerak bo‘lgan munosabatdir. Boshqalar bilan muloqotda paydo bo‘ladigan qadriyat sifatida bag‘rikenglik kechirim, tushunish bilan farqlarni qabul qilish va g‘oyalarni o‘zaro tushunish ruhida muhokama qilish kabi xulq-atvorlar bilan birga bo‘lishi kutiladi. Oila ichida bag‘rikenglik qadriyati qadrlanadigan bo‘lsa, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, qoidalarga nisbatan moslashuvchan bo‘lish va bag‘rikenglik bilan harakat qilish kabi xatti-harakatlar namoyon bo‘ladi; bu yondashuv oilaviy hamjihatlikka hissa qo‘shadi. Bag‘rikenglik qadriyatini singdirishda yodda tutish kerak bo‘lgan nuqta shundaki, hech bir oila a’zosini, hattoki bolani ham ma’lum bir qolipga solish emas, balki ularga o‘zlari bo‘lishga imkon berish va ularning tanlovlarini hurmat qilishdir.

Oilaviy muhit bolalarning o‘rganish tajribasini orttiradigan birinchi va eng muhim makon ekanligi unutmaslik kerak. Shuning uchun mehrga asoslangan, qiziquvchanlik va kashfiyot imkoniyatlarini ta’minlovchi, izchil, stimullarga boy va bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muhit ustuvor ahamiyatga ega ekanligi taqdiqotlarda aks etgan, Xususan quyidagilar sanab o‘tilgan:

- Bolaga muhim namuna bo‘lib xizmat qiladigan oila a’zolari bolaning atrof-muhitida ma’qul xulq-atvorni namoyish etadigan, hurmatli, nozik va namunalik shaxslar bo‘lishi kerak.

- Jamiyatda sodir bo‘layotgan tez o‘zgarishlarni inobatga olib, oilalar ota-onalik uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallashga tayyor bo‘lishi, bugungi sharoitda bolani tarbiyalash mas’uliyatini anglab yetishi va bolaga bo‘lgan mehnat va qiziqishni namoyish etishi lozim.

- Bolalarni tarbiyalash faqat onaning mas’uliyati emasligi tan olinishi kerak; kelajakda ota-ona sifatida bajaradigan rollariga ta’sirini hisobga olgan holda, ona va ota uchun bolaning rivojlanishida teng mas’uliyatni o‘z zimmalariga olish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

- O‘yin bolalar uchun eng muhim faoliyat bo‘lganligi sababli, ota-onalar uchun bolalari bilan o‘ynashi muhimdir.

- Bolalarni hayotning turli vaziyatlariga tayyorlash uchun ularga imkoniyatlar yaratilishi va o‘z muammolarini o‘zlari hal qila oladigan muhit shakllantirilishi kerak.[6]

Maktablar oilalar bilan hamkorlik qilish va o‘qituvchi-ota-ona muloqotini mustahkamlash bo‘yicha treninglar o‘tkazishi va shunday muhit yaratishi, shuningdek, oilalarning ushbu jarayondan foyda ko‘rishini ta’minlaydigan usullar ishlab chiqilishi lozim. Maktabda beriladigan ta’lim faqat uyda qo‘llab-quvvatlanganda muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Oilalar va maktablar juda yaqindan hamkorlik qilishi kerak. Tug‘ilishdan boshlab oilada boshlanadigan ta’lim, o‘sish va ijtimoiylashuv jarayoni maktabgacha ta’lim muassasalarida davom etadi. Maktab yillari boshlanganda, oilalarning farzandlarining ta’limidagi rollari tugamaydi; aksincha, ular turli yo‘llar bilan davom etadi va kengayadi.

Oilalar va maktablar hayotning dastlabki bosqichida ijtimoiy kapital[ning ikki asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli, oilalar zarur bo‘lganda yordam izlashlari va erta yoshdan boshlab farzandlarining rivojlanishi va ta’limini qanday qo‘llab-quvvatlashlari mumkinligini anglab yetishlari muhimdir [4]

Inklyuziv ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchining oila a’zolari bilan o‘zaro ta’sir, muloqot va hamkorlik tizimini yaratish uning ta’limi, rivojlanishi va ijtimoiylashuvi muvaffaqiyati uchun muhim shartlardan biridir. [2]

Oilaviy muhit bolalarning o‘rganish tajribasini oladigan birinchi va eng muhim makon ekanligi unutmaslik kerak. Shuning uchun muhabbatga asoslangan, qiziquvchanlik va kashfiyot uchun imkoniyatlar yaratadi-

gan, izchil, stimullarga boy va bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan oilaviy muhit ustuvor ahamiyatga ega. Turli tadbirlar orqali odamlarni birlashtirish uchun tashkilotlar tuzilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oila a’zolari o‘zaro bir-biriga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishi muhim, chunki bu bolaga namuna bo‘lib xizmat qiladi. Aksincha, agar oila bag‘rikeng bo‘lmay, balki haddan tashqari avtoritar bo‘lsa, bu qadriyatlarni singdirish nuqtai nazaridan kamchilik tug‘diradi. Ishonch, muhabbat va hurmat hukm suradigan oilalarda tabiiy ravishda yuzaga keladigan xulq-atvor bu shunday bo‘lishi mumkin. Xususan, muhabbat bag‘rikenglikning zarur sharti ekani aytish mumkin. Oila ichida vaqti-vaqti bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shaxslararo muammolarni hal qilishda bag‘rikeng yondashuv muammoni hal etishni osonlashtirishi mumkin. Biroq, bag‘rikenglik adolatsizlikka olib kelmasligi uchun, oila bir a’zo doim bag‘rikenglikni kutadigan, ikkinchisi esa uni ko‘rsatishga majbur bo‘ladigan vaziyatdan qochishi kerak. Boshqa tomondan, adolatsizlik va hurmatsizlik kabi nohaq xatti-harakatlarga duch kelganda bag‘rikenglik ayniqsa muhim bo‘lib, bunday holatlarning davom etishi hech kimning zarar kormasligini talab qiladi. Oilada olingan tarbiya kelgusida yosh avlodni inklyuziv madaniyatli jamiyat a’zosi bo‘lib shakllanishining poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent:Cho‘lpon nomidagi NMIU,2019 - 144 B. 4 - b.98 – b

2. Akhmetova E., Almetov N. (2022). The role of school and family cooperation in inclusive education. WorldJournal on Educational Technology: Current Issues. 14(2), 498-506. https://doi.org/10.18844/wjet.v14i2.6976]

3. Amangeldiyeva A.R. Inklyuziv ta’lim muhitini yaratishda inklyuziv ta’lim va tolerantlikning integratsiyasi. Pedagogik ta’limning ilmiy-metodik muammolari: innovatsion yondashuvlar va tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.2025-y. 109-b.

4. [Crosnoe, R. (2004). Social capital and the interplay of families and schools. *Journal of Marriage and Family, 66*(2), 267–280. https://doi.org/10.1111/j.1741-3737.2004.00019.x]

5. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.Toshkent.2009.37-b.

6. Halis S. ve b. Kapsayıcı Eğitim: Tüm Çocuklar İçin Katılım. Öğrenme ve Gelişim Modeli. MARDİN, 2022.116-b.

7. Hasanboyeva O, D.Xoliqov, Sh.K.Toshpo‘latova va boshqalar. Oila pedagogikasi. “Aloqachi” nashriyoti, 2007-y.37-b.

8. Rashidov O. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik [Matn]: o‘quv qo‘llanma / O.Rashidov. — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. 5-b.